

**BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.01.2020.I.20.06 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDA BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI

UTEMURATOVA GULNARAXAN XOJANIYAZOVNA

**XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGI
RIVOJLANISHINING METODOLOGIK ASOSLARINI
TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti

**IQTISODIYOT fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**Оглавление автореферата докторской (DSc) диссертации
Content of the Doctoral (DSc) dissertation abstract****Utemuratova Gulnaraxan Xojaniyazovna**

Xizmat ko'rsatish sohasida davlat-xususiy sherikligi rivojlanishining metodologik asoslarini takomillashtirish..... 5

Utemuratova Gulnaraxan Xojaniyazovna

Совершенствование методологических основ развития государственно-частное сотрудничество в сфере услуг..... 33

Utemuratova Gulnaraxan Xojaniyazovna

Improving the socio-economic mechanisms of development of service enterprises 63

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 67

BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.01.2020.I.20.06 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDA BIR MARTALIK ILMIY KENGASH

BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI

UTEMURATOVA GULNARAXAN XOJANIYAZOVNA

XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGI
RIVOJLANISHINING METODOLOGIK ASOSLARINI
TAKOMILLASHTIRISH

08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti

IQTISODIYOT fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2019.1.DSc/Iqt26 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)). Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.karsu.uz) va «Ziyonet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Arabov Nurali Uralovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Bektemirov Abdumalik
iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Musagaliyev Ajiniyaz Jumagulovich
iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Matyakubov Umidjon Raximovich
iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Buxoro davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.01.2020.I.20.06 raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil "16" fevral kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko'chasi, 1-uy. Tel.: (99861) 223-60-78; faks: (99861) 223-60-19; e-mail: karsu_info@edu.uz.)

Dissertatsiya ishi bilan Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (123 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko'chasi, 1-uy. Tel.: (99861) 223-60-78, e-mail: karsu_info@edu.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil "01" fevral kuni tarqatildi.


(2023 yil "01" fevral dagi № 20 raqamli reestr bayonnomasi).



J.K.Sauxanov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, i.f.d., professor



R.B.Utemuratov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, PhD.


T.Doschanov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor



KIRISH (doktorlik dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda milliy iqtisodiyotlar tarkibida xizmat ko'rsatish va servis sohasida muhim ijtimoiy ahamiyatga ega loyihalarni realizatsiya qilishda davlat va xususiy sektori o'rtasida hamkorlikni o'rnatilishi natijasida davlat-xususiy sherikligi modelidan foydalanish sezilarli darajada oshdi. "Iqtisodiyoti rivojlangan davlatlarda YaIM tarkibida xizmat ko'rsatish va servis sohasining ulushi 60-80%ni, ilm-fan va innovatsion faoliyatni investitsiyalashga sarflanayotgan mablag'lar YaIMga nisbatan 3,0%ni tashkil etgan holda, jami mablag'larning 2/3 qismi tadbirkorlik sohasi hissasiga to'g'ri kelmoqda va mazkur sohada davlat-xususiy sherikligi loyihalarining ulushi qariyb 65,0%ni tashkil etmoqda"¹. Shunga ko'ra, xizmat ko'rsatish sohasida davlat-xususiy sherikligining rivojlanish uslubiyatini takomillashtirish dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda.

Jahonda globallashuv hamda milliy va xalqaro darajadagi raqobat munosabatlarining kuchayib borishi sharoitida xizmat ko'rsatish sohasida davlat-xususiy sherikligini rivojlantirishga oid ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda. Xizmat ko'rsatish sohasida davlat va xususiy sektor hamkorligini rivojlantirish, bu borada davlat-xususiy sheriklik shakllari va modellarini ishlab chiqish, davlat-xususiy sherikligi samaradorligini baholash usullarini tasniflash, davlat va xususiy sektor hamkorligining klaster yondashuvini asoslash, davlat-xususiy sherikligi rivojlanishining investitsion faolligini modellashtirish, ijtimoiy loyihalarda risklarni boshqarish, hududlarning investitsion faoliyati samaradorligini oshirish, xizmat ko'rsatish sohasidagi davlat-xususiy sherikligini tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish kabilar ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

Bugungi kunda Qoraqalpog'iston Respublikasi xizmat ko'rsatish sohasida davlat va xususiy sektor hamkorligi rivojlanishining muhim omili sifatida davlat-xususiy sherikligi loyihalari samaradorligini oshirishga alohida ahamiyat qaratilmoqda. "Joriy yilda jami 18 trillion so'mlik 29 mingta loyiha amalga oshirilib, xizmatlar sohasi 20 foizga o'sgan. Kelgusi yilda xizmat ko'rsatish sohasidagi loyihalarni amalga oshirishga 500 million dollar ajratilishi belgilandi"². Bu vazifalarni hal etishda xizmat ko'rsatish sohasining investitsion salohiyatini oshirish, sohada davlat-xususiy sherikligini realizatsiya qilish, davlat-xususiy sherikligi loyihalarini boshqarishning samarali usullarini joriy etish, hududlarning investitsion jozibadorligini oshirish, davlat-xususiy sherikligini tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish kabi yo'nalishlarda ilmiy-tadqiqotlarni chuqurlashtirish dolzarb hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 30 sentyabrdagi PF-6318-son "Xizmatlar sohasini qo'llab-quvvatlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni, 2018 yil 20 oktyabrdagi PQ-3980-son "Davlat-xususiy

¹ <http://www.worldbank.org/eca/russian/data/>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2021 yil 14 dekabr kuni xizmatlar sohasini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar natijadorligi hamda kelgusidagi ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan videoselektor yig'ilishi. - <https://xs.uz/uzkr/post/khizmatlar-sohasini-rivozhlantirish-bojicha-ustuvor-yonalishlar-belgilandi>

shariklikni rivojlantirishning huquqiy va institutsional bazasini yaratish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 26 aprelda 259-son "Davlat-xususiy shariklik loyihalarini amalga oshirish tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi Qarori hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi³. Investitsion faoliyatni amalga oshirish, davlat-xususiy sharikligining rivojlanish shakllari va modellarini tadqiq qilish, davlat-xususiy sharikligi loyihalari samaradorligini baholash, hududlarning investitsion jozibadorligini oshirish bo'yicha nazariy-uslubiy tadqiqotlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari, yirik reyting agentliklari va oliy ta'lim muassasalari, jumladan, United Nations (Nyu-York), Organisation for Economic Cooperation and Development (OECD) (Parij), World bank (AQSh), European Bank for Reconstruction and Development (EBRD) (Buyuk Britaniya), Public-private Partnership Center (University of Navarra) (Ispaniya), Public-private Partnership Center (Universite of Geneva) (Shveysariya), Canadian science policy centre (Kanada), North campus research complex (University of Michigan) (AQSh), Public-Private Partnership Research Center (Toyo University) (Yaponiya), Joint Centre for Public-Private Partnerships (University College London) (Buyuk Britaniya), The Specialist Centre on PPPs in Smart and Sustainable Cities (PPP for Cities) (Ispaniya), Rossiya iqtisodiyot universiteti (Rossiya), Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi, Toshkent moliya instituti va Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti (O'zbekiston) tomonidan olib borilmoqda.

Jahonda davlat-xususiy sharikligi rivojlanishining ilmiy-metodologik, tashkiliy-iqtisodiy asoslarini takomillashtirish bo'yicha qator, jumladan, quyidagi ilmiy natijalar olingan: davlat va xususiy sektor hamkorligini rivojlantirish, davlat-xususiy sharikligini tartibga solish uchun xalqaro normalar va ijtimoiy ahamiyatga ega loyihalarni ishlab chiqish (United Nations); davlat-xususiy sharikligini rivojlantirish va samaradorligini baholash usullarini takomillashtirish (European Bank for Reconstruction and Development (EBRD), Buyuk Britaniya); davlat-xususiy shariklik shakllari va modellarini tadqiq qilish, davlat-xususiy sharikligi

³ <http://www.unescap.org/ttdw/ppp/PPPUUnits.html>; https://doi.org/10.1787/sti_in_outlook-2016-10-en;
<https://www.worldbank.org/en/topic/publicprivatepartnerships/research>; <https://www.ebrd.com/home>;
<https://www.iiese.edu/faculty-research/research-centers/ppsrc-public-private-sector-research-center/>;
<https://sciencepolicy.ca/posts/public-private-partnerships-as-drivers-of-research-translation-and-innovation-outcomes-in-healthcare-commercialization/>; <https://ppp.unige.ch/>; <https://ncrc.umich.edu/private-public-partnerships>;
<https://www.toyo.ac.jp/en/research/labo-center/pppc>; <https://jc PPP.org/>; <https://www.uneceppp-icoe.org/ppp-smart-and-sustainable-cities/>

loyihalarda risklarni boshqarish (Public-private Partnership Center (University of Navarra), Ispaniya); hududlarning investitsion faoliyati samaradorligini oshirish (Public-private Partnership Center (Universite of Geneva), Shveysariya); davlat-xususiy sherikligini tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish (Public-Private Partnership Research Center (Toyo University), Yaponiya).

Xizmat ko'rsatish sohasida davlat-xususiy sherikligi rivojlanishi bo'yicha jahonda bir qator, jumladan, quyidagi ustuvor yo'nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda: davlat-xususiy sherikligining rivojlanish shakllari va modellarini tadqiq qilish, xizmat ko'rsatish sohasida davlat-xususiy sherikligi loyihalari samaradorligini baholash usullarini takomillashtirish, davlat va xususiy sektor hamkorligining klaster yondashuvini asoslash, ijtimoiy loyihalarda risklarni boshqarish tizimini takomillashtirish, xizmat ko'rsatish sohasidagi davlat-xususiy sherikligini tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Iqtisodiy o'sish, servis iqtisodiyotining shakllanishi, iqtisodiyotda davlatning roli, davlat va xususiy sektor hamkorligi masalalarining ilmiy asoslari xorijlik olimlar, jumladan, J.M.Keyns, R.S.Smit, Y.A.Shumpeter, P.F.Druker, M.Yu.Porter, B.S.Santo va boshqalar tomonidan tadqiq qilingan⁴.

Xizmat ko'rsatish va servis sohasi rivojlanishining ilmiy-metodologik jihatlari ko'plab xorijlik olimlar, jumladan: V.V.Kulibanova, K.X.Xaksever, B.R.Render, R.S.Rassel, R.G.Merdik, V.K.Romanovich, S.N.Korobkova, V.I.Kravchenko, S.V.Orlov, I.P.Pavlova va boshqalar tomonidan tadqiq qilingan⁵. Ushbu muammolarni o'rganishga o'zbekistonlik olimlardan M.Q.Pardayev, M.M.Muxammedov, D.R.Zaynalov, N.U.Arabov, Sh.O.Quvondiqov, A.J.Musagaliyev va boshqalarning ilmiy ishlari bag'ishlangan⁶.

Investitsion faoliyat, xususiy sektor va davlat o'rtasidagi munosabatlarning o'ziga xos shakllari, davlat-xususiy sheriklik shakllari va modellari, davlat-xususiy sherikligi rivojlanishi, davlat-xususiy sheriklik loyihalari samaradorligini baholash, ijtimoiy loyihalarda risklarni boshqarish masalalariga xorijlik iqtisodchi olimlardan

⁴ Кейнс Дж.М. Общая теория занятости, процента и денег / Пер. сангл. проф. Н.Н.Любимова, под. ред. д.э.н., проф. Л.П.Куракова. – М.: МИЭМП, 2010; Шумпетер Й. Теория экономического развития. Капитализм, социализм и демократия [Текст] / Й. Шумпетер: пер. с англ. предисл. В.С. Автономова. – М.: ЭКСМО, 2007. – 864 с.; Друкер П. Бизнес и инновации [Текст] / П. Друкер: пер. с англ. – М.: Вильямс, 2007. – 350 с.; Портер М.Ю. Конкурентное преимущество: Как достичь высокого результата и обеспечить его устойчивость / пер. с англ. Е. Калининой. – М.: «Альпина Паблишер», 2008 (2-е изд. – 2008). – 720 с.; Санто Б.С. Инновация как средство экономического развития / Санто Б. С. – Москва: Прогресс, 1990. – 295 с.

⁵ Управление и организация в сфере услуг: теория и практика: Service Management and Operation – 2-е международ. изд. (пер. с англ под науч. ред. В.В.Кулибановой) / К.Х.Хаксевер, Б.Р.Рендер, Р.С.Рассел, Р.Г.Мердик. – СПб и др.:ПИТЕР, ПИТЕР бух, 2002. – 751 с.; Романович В.К. Сервисная деятельность: учеб. пос.: под общ. ред В.К.Романович. / С.Н.Коробкова, В.И.Кравченко, С.В.Орлов, И.П.Павлова – 3-е изд. – СПб.: Питер, 2005. – 156 с.

⁶ Пардаев М.Қ., Исроилов Ж.И., Гаппаров А.Қ. Хизмат кўрсатиш соҳасида иқтисодий таҳлилни такомиллаштириш муаммолари. Рисола. Самарқанд. «Зарафшон», 2009. - 66 б.- 4,1 б.т.; Мухаммедов М.М. и др. Экономика торговли. Самарқанд: 1998. с. 282; Зайналов Д.Р. Услуги и сервис как экономическая категория. // «Сервис» журналы. Самарқанд: 2009, 1-сон. – 70-77 бетлар. – 0,6 б.т.; Арабов Н.У., Артиков З.С. Сервис корхоналарида хизмат кўрсатиш сифатини ошириш. Инсон капитали ва ижтимоий ривожланиш журналы//Самарқанд, СамДУ, № 1, 2021, 153-164 б.; Қувондиқов Ш.О. Хизмат соҳасида оилавий тадбиркорликни ривожлан-тириш муаммолари. Иқтисод фанлари номзоди дис. автореферати. Самарқанд: СамИСИ, 2008.- 23 б; Musagaliev A.J., and etc. General Analysis of Services in the Economic Development of Regions in Uzbekistan / Asian Journal of Advances in Research. Volume 17. Issue 4. 2022. - Pages: 221-226.

D.A.Yendovskiy, G.L.Igolnikov, O.A.Romanova, V.A.Kabushkina, V.G.Varnavskiy, U.G.Zinnurov, E.O.Zakirova va boshqalar sezilarli natijalarga erishganlar⁷. Ushbu muammolarni o'rganishga o'zbekistonlik olimlardan A.B.Vahobov, S.S.G'ulomov, A.S.Jo'rayev, D.G'.G'ozibekov, M.E.Po'latov, U.I.Djumaniyazov, S.E.Elmirzayev, N.Sh.Shavkatov, K.P.Xalmuratov va boshqalarning ilmiy ishlarida yoritib berilgan⁸.

Ammo ushbu mualliflar ishlarida xizmat ko'rsatish korxonalarida innovatsion-investitsion faoliyatni rivojlantirish va samaradorligini oshirish mexanizmlari tadqiqot ob'ekti sifatida batafsil o'rganilmagan. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida respublikada xizmat ko'rsatish sohasida innovatsion-investitsion faoliyat rivojlanishi bo'yicha metodologik va konseptual yondashuvlarning yetarlicha asoslanmaganligi va tizimlashtirilmaganligi tadqiqot mavzusining dolzarbligini ifodalaydi hamda uning maqsadi va vazifalarini to'g'ri aniqlashga ham imkon beradi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq PZ-2017-092718- raqamli "Qoraqalpog'iston Respublikasida ekologik turizmni rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish" mavzusidagi ilmiy tadqiqot loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi iqtisodiyotning transformatsiyalashuvi sharoitida xizmat ko'rsatish sohasida davlat-xususiy sherikligi rivojlanishining metodologiyasini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

"xizmat", "davlat-xususiy sherikligi" kategoriyalarining mohiyatini nazariy jihatdan tahlil etish hamda ularning takomillashgan ta'riflarini shakllantirish;

⁷ Ендовицкий Д.А., Бабушкин В.А., Батурина Н.А. Анализ инвестиционной привлекательности организации: учебник. – М.: КНОРУС, 2010. – 376 с.; Игольников Г.Л., Патрушева Е.Г. Оценка инвестиционной привлекательности и экономичности развития производства в системе методов обоснования и анализ реализации инвестиционных проектов. // Организатор производства. 2001. № 2.; Романова О.А. Теория и практика развития частно-государственного партнерства/ О.А. Романова // Вестник Уральского государственного технического университета. - 2007. - № 3. - С. 41.; Кабашкин В.А. Формирование и развитие партнерских отношений государства и предпринимательских структур в Российской Федерации (управленческий аспект): автореф. дис. докт. экон. наук: 08.00.05/ В.А. Кабашкин.- М., 2007. - С. 23; Варнавский В.Г. Партнерство государства и частного сектора: формы, проекты, риски/ В.Г. Варнавский. – М.: Наука, 2005. - 315 с.

⁸ Вахабов А.В., Хажибакиев Ш.Х., Муминов Н.Г. Хорижий инвестициялар. Ўқув қўлланма / проф. А.В.Вахабовнинг умумий таҳрири остида. – Т.: Молия, 2010. 328 б.; Гулямов С.С. Проектный анализ инвестиций. Т.: - ГФНТИ 1995. – 249 с.; Жўраев А.С., Хўжамкулов Д.Ю., Маматов Б.С.: Академик М.Шарифхўжаев таҳрири остида. Инвестиция лойиҳалар таҳлили: ўқув қўлланма – Т.: Шарқ, 2003. – 256 б.; Ғозибеков Д.Ғ. Инвестицияларни молиялаштириш масалалари. – Т.: Молия, 2003. – 332 б.; Пўлатов М.Э. Интеллектуал капитал ҳисоби ва таҳлили: назария ва амалиёт масалалари. Монография. – Т.: Иқтисодиёт, 2012. – 166 б.; Джуманиязов У.И. «Давлат-хусусий шерикчилиги асосида корпоратив бошқарувни ривожлантиришнинг айрим назарий-услубий масалалари» // «Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар» илмий электрон журнали. 2017 йил № 3, май-июнь, 9-б.; Элмирзаев С.Э., Шавкатов Н.Ш. Давлат-хусусий шериклик муносабатларининг илғор хориж тажрибалари ва мамлакатимизда қўллаш истиқболлари // "Халқаро молия ва ҳисоб" илмий электрон журнали. № 3, июнь, 2019.; Халмуратов К.П. Қорақалпоғистон Республикасида хизматлар соҳасида ДХШнинг ташкилий-иқтисодий механизмини такомиллаштириш // Дисс. иқтисодиёт фанларидан фалсафа доктори (PhD). – Нукус, 2021. 108-б.

xizmat ko'rsatish sohasida davlat-xususiy sherikligining shakllari, modellari va mexanizmlarini tadqiq qilish;

iqtisodiyotning transformatsiyalashishi sharoitida xizmat ko'rsatish sohasida davlat-xususiy sherikligi rivojlanishiga metodologik yondashuvni ilmiy asoslash;

xizmat ko'rsatish sohasida davlat va biznes o'rtasida sheriklik munosabatlari rivojlanishining xorij tajribasini o'rganish va undan O'zbekiston va Qoraqalpog'istonda foydalanish imkoniyatlarini aniqlash;

xizmat ko'rsatish sohasida davlat-xususiy sherikligi samaradorligini baholash metodikasini takomillashtirish;

xizmat ko'rsatish sohasida davlat-xususiy sherikligining rivojlanishida klaster yondashuvlari xususiyatlarini baholash;

xizmat ko'rsatish sohasida davlat-xususiy sherikligi rivojlanishining investitsion faolligini modellashtirish;

Qoraqalpog'iston Respublikasi xizmat ko'rsatish sohasida investitsion jozibadorlikni oshirish omillarni tahlil qilish;

ta'lim xizmatlari bozorida davlat-xususiy sherikligi loyihalarini boshqarish holatini tahlil qilish;

xizmat ko'rsatish sohasida davlat-xususiy sherikligi loyihalarida risklarni boshqarish tizimini takomillashtirish;

respublika xizmat ko'rsatish sohasida investitsion faoliyat samaradorligini oshirish uslubiyatini takomillashtirish;

xizmat ko'rsatish sohasida davlat-xususiy sherikligini tartibga solish mexanizmini takomillashtirish;

xizmat ko'rsatish sohasida davlat-xususiy sherikligi rivojlanishining ustuvor yo'nalishlari bo'yicha ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida Qoraqalpog'iston Respublikasi xizmat ko'rsatish sohasi sub'ektlari faoliyati olingan.

Tadqiqotning predmeti bo'lib, respublika xizmat ko'rsatish sohasida davlat-xususiy sherikligi rivojlantirish va samaradorligini oshirish bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada tizimli yondashuv, guruhlash, induksiya-deduksiya, mantiqiy va taqqoslama tahlil, statistik va ekonometrik modellashtirish, prognozlash, kompleks baholash kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

xizmat ko'rsatish sohasida DXSH loyihalarida risklar ehtimolligini past ($RE_{past} \leq 0,2,5$), o'rta ($RE_{o'rta} \leq 2,6-4,5$) va yuqori ($RE_{yuqori} \leq 4,6-1$) darajali guruhlarga tabaqalashtirish orqali davlat va xususiy sektor ishtirokchilari hamkorligini baholash o'rtadagi risklarni taqsimlash va ularning ko'lamini aniqlash mezonlari asosida takomillashtirilgan;

xizmat ko'rsatish sohasida davlat-xususiy sherikligi loyihasini baholashda dastlabki parametrlarining o'zgarishiga bog'liq holda olingan ko'rsatkichlar sezgirligining nisbiy tavsifini ifodalovchi elastiklik koeffitsiyentining maqbul qiymatlarini ta'minlash asosida samaradorligini oshirish taklifi asoslangan;

xizmat ko'rsatish sohasida davlat-xususiy sherikligi loyihalarini realizatsiya qilish va samaradorligini oshirish bosqichlari o'rtasidagi izchillikni ta'minlash

asosida davlat va xususiy biznes hamkorligi rivojlanishining investitsion faolligini oshirish taklifi asoslangan;

hudud investitsion jozibadorligi reytingi hududning iqtisodiy salohiyati, ishlab chiqarish-resurs salohiyati, tadbirkorlikni rivojlanish darajasi, iste'mol darajasi va turmush sifati hamda investitsion risk salmog'ining integral ko'rsatkichi orqali baholash asosida takomillashtirilgan;

Qoraqalpog'iston Respublikasida xizmatlar sohasining barqaror rivojlanish dinamikasi asosida jami ko'rsatilayotgan xizmatlar hajmini oshirishning 2027 yilga qadar prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

“xizmat”, “davlat-xususiy sherikligi” kategoriyalarining ijtimoiy va iqtisodiy mazmuniga oid mualliflik ta'rifi ishlab chiqilgan;

ilg'or xorijiy mamlakatlarning DXSH rivojlantirish bo'yicha amaliy tajribalari o'rganilib, Qoraqalpog'iston Respublikasida foydalanish mumkin bo'lgan yondashuvlari va yo'nalishlari ochib berilgan;

hududiy barqarorlikni ta'minlashda DXSH rivojlantirish asosida hududlarning mavjud iqtisodiy salohiyatdan samarali foydalanish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan;

davlat-xususiy sherikligi tizimida strategik rejalashtirish, marketing tadqiqotlarini muvofiqlashtirish hamda investitsion loyihalarni moliyalashtirish va monitoring qilish asosida davlat-xususiy sherikligini boshqarishning tashkiliy modeli taklif qilingan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo'llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, ma'lumotlarning rasmiy manbalardan, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligining statistik ma'lumotlaridan olingani hamda tegishli xulosa va tavsiyalarining vakolatli tuzilmalar tomonidan amaliyotga joriy qilingani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati dissertatsiyada ishlab chiqilgan metodologik va uslubiy taklif va tavsiyalar davlat va xususiy sektor hamkorligini ta'minlash, davlat-xususiy sherikligining samaradorligini baholash usullarini takomillashtirish, davlat-xususiy sherikligi loyihalarida risklarni boshqarish, hududlarning investitsion jozibadorligini oshirish, davlat-xususiy sherikligini tartibga solish bo'yicha ilmiy apparatni takomillashtirish bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati davlat va xususiy sektor hamkorligini rivojlantirish hamda davlat-xususiy sherikligi loyihalari samaradorligini baholash va realizatsiya qilish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish, davlat-xususiy sherikligini tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish, sohaga oid huquqiy-me'yoriy hujjatlarni tayyorlashda, shuningdek, “Xizmat ko'rsatish iqtisodiyoti”, “Investitsiyalar”, “Investitsion loyihalarni boshqarish” fanlari bo'yicha o'quv dasturlarini takomillashtirish, darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar tayyorlashda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Xizmat ko'rsatish sohasida davlat-xususiy sherikligi rivojlanishining metodologiyasini takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

xizmat ko'rsatish sohasida DXSH loyihalarida risklar ehtimolligini past ($RE_{past} \leq 0-2,5$), o'rta ($RE_{o'rta} \leq 2,6-4,5$) va yuqori ($RE_{yuqori} \leq 4,6-1$) darajali guruhlariga tabaqalashtirish orqali davlat va xususiy sektor ishtirokchilari hamkorligini baholash o'rtadagi risklarni taqsimlash va ularning ko'lamini aniqlash mezonlari asosida takomillashtirish taklifi O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi tomonidan hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish jarayonida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligining 2022 yil 13 iyuldagi 02/22-02-11/11-996-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu taklifdan foydalanish davlat risklarini tizimlashtirish va tasniflash orqali davlat-xususiy sherikligi loyihalarini realizatsiya qilishga to'siq bo'luvchi omillarni aniqlash imkonini bergan;

xizmat ko'rsatish sohasida davlat-xususiy sherikligi loyihasini baholashda dastlabki parametrlarining o'zgarishiga bog'liq holda olingan ko'rsatkichlar sezgirligining nisbiy tavsifini ifodalovchi elastiklik koeffitsiyentining maqbul qiymatlarini ta'minlash asosida samaradorligini oshirish taklifi O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi tomonidan hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish jarayonida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligining 2022 yil 13 iyuldagi 02/22-02-11/11-996-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu taklifdan foydalanish davlat-xususiy sheriklik loyihasi dastlabki parametrlarining tayanch qiymatdan chetga chiqishini natijaviy loyiha ko'rsatkichlariga ta'sir darajasini aniqlash asosida uning samaradorligini 25,0 %ga oshirish imkonini bergan;

xizmat ko'rsatish sohasida davlat-xususiy sherikligi loyihalarini realizatsiya qilish va samaradorligini oshirish bosqichlari o'rtasidagi izchillikni ta'minlash asosida davlat va xususiy biznes hamkorligi rivojlanishining investitsion faolligini oshirish taklifi O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi tomonidan hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish jarayonida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligining 2022 yil 13 iyuldagi 02/22-02-11/11-996-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu taklifdan foydalanish davlat-xususiy sherikligi yo'nalishlari va vositalarini kengaytirish asosida xizmat ko'rsatish sohasining strategik salohiyatini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini aniqlash imkonini bergan;

hudud investitsion jozibadorligi reytingi hududning iqtisodiy salohiyati, ishlab chiqarish-resurs salohiyati, tadbirkorlikni rivojlanish darajasi, iste'mol darajasi va turmush sifati hamda investitsion risk salmog'ining integral ko'rsatkichi orqali baholash asosida takomillashtirish taklifi O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi tomonidan hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish jarayonida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va

kambag'allikni qisqartirish vazirligining 2022 yil 13 iyuldagi 02/22-02-11/11-996-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu taklifdan foydalanish hududlar iqtisodiyotini rivojlantirishga investitsiyalarni jalb qilish shart-sharoitlari va salohiyati bo'yicha potensial zahiralarini aniqlash asosida investitsion jozibadorlik darajasini 1,5 martaga oshirish imkonini bergan;

Qoraqalpog'iston Respublikasida xizmatlar sohasining barqaror rivojlanish dinamikasi asosida jami ko'rsatilayotgan xizmatlar hajmini oshirishning 2027 yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz ko'rsatkichlari Qoraqalpog'iston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi tomonidan respublikada xizmatlar sohasini rivojlantirish dasturlari va «Yo'l xarita»larini ishlab chiqishda foydalanilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligining 2022 yil 16 iyundagi 14/689-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu prognoz ko'rsatkichlaridan foydalanish 2027 yilga kelib xizmat ko'rsatish sohasida jami xizmatlar hajmini 49,5 % va mehnat unumdorligini 34,9 %ga oshirish imkoniyatlaridan kelib chiqib soha iqtisodiy faoliyati asosiy parametrlari o'rtasidagi o'zaro muvofiqlikni ta'minlash imkonini yaratgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 10 ta, jumladan, respublika miqyosidagi 6 ta va 4 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyada muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 30 ta ilmiy ish, shu jumladan, 1 ta ilmiy monografiya, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 12 ta maqola, jumladan, 9 tasi respublika va 3 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Ishning umumiy hajmi 187 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va asosiy vazifalari, ob'ekti va predmeti shakllantirilgan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilishning sinovdan o'tganligi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiya ishining **“Xizmat ko'rsatish sohasida davlat-xususiy sherikligi rivojlanishining nazariy-metodologik asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida xizmat ko'rsatish va servis sohasi rivojlanishiga yangicha yondashuvlarni ilmiy jihatdan tahlil etish asosida “xizmat”, “davlat-xususiy sherikligi” kategoriyalarining mualliflik ta'rifi ishlab chiqilib, turli xil mezonlarga ko'ra xizmatlarning turlari alohida yo'nalishlar bo'yicha tasniflangan hamda xizmat ko'rsatish sohasida davlat-xususiy sherikligi (DXSH)ning asosiy turlari va shakllari tadqiq qilingan. Shuningdek, xizmat ko'rsatish sohasida DXSH rivojlanishiga metodologik yondashuv asoslangan hamda DXSH rivojlani-shining xorij tajribasi ilmiy-nazariy jihatdan o'rganilgan va ulardan respublikada foydalanish imkoniyatlari aniqlangan.

Hozirgi vaqtda jahonning bozor iqtisodiyotiga ega ko'plab mamlakatlarda davlat va xususiy sektor o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar tizimida sezilarli o'zgarishlar sodir bo'lmoqdaki, bu o'zgarishlar iqtisodiyotning yangi institutsional tuzilmasini shakllantirmoqda. Bu esa rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida davlat va xususiy sektor o'rtasidagi munosabatlarning o'ziga xos shakli vujudga kelayotganligining ifodasi hisoblanadi. Davlat va xususiy sektor o'rtasidagi munosabatlarning o'ziga xos shakli sifatida DXSHning turli xil shakllarini jadal rivojlanishi, ularning iqtisodiyot soha va tamoqlarida keng ko'lamda qo'llanilishi o'zaro hamkorlikning ushbu shaklini bozor iqtisodiyotining muhim xususiyati sifatida tan olish imkonini beradi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotining innovatsion rivojlanishi sharoitida xizmat ko'rsatish sohasining barqaror rivojlanishi xo'jalik sub'ektlari faoliyatining intensivligini ta'minlash, resurslar salohiyatini oshirish, iqtisodiy samaradorlikka erishish mexanizmini takomillashtirishni talab etmoqda. Shunga ko'ra, hozirgi vaqtda xizmat ko'rsatish sohasida davlat va xususiy tadbirkorlik o'rtasida istiqbolli hamkorlikni amalga oshirish hamda uning raqobatni rivojlantirish vositalari va choralari bilan optimal darajada uyg'unligini ta'minlash muhim hisoblanadi.

Xizmat – bu foydali faoliyatning bir turi bo'lib, mehnatning boshqa turlaridan o'zida alohida bir muhim xususiyatini mujassam etganligi bilan ajralib turuvchi, uni bajaruvchi va iste'molchi o'rtasidagi bevosita o'zaro munosabatlarning natijasi sifatida iste'molchining talabini qondirishga yo'naltirilgan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatdir.

Davlat-xususiy sherikligi – bu davlat va ijtimoiy mulk ob'ektlari hamda turli xil ijtimoiy ahamiyatga ega loyihalarni amalga oshirish maqsadida davlat sherigi va xususiy sherikning muayyan muddatga yuridik jihatdan rasmiylashtirilgan, ular

o'rtasida risklarni taqsimlashga asoslangan davlat va biznes o'rtasidagi o'zaro manfaatli hamkorlikdir.

Xizmatlarning har xil turlarida nomoddiy va moddiy elementlarning nisbati bir xil emas, bu an'anaviy va noan'anaviy xizmatlarni ajratib olishga imkon beradi. Shuni ta'kidlash kerakki, turli xil xizmatlarning moddiy va nomoddiy elementlari o'rtasida turli xil nisbatlar mavjud. Shunga ko'ra, xizmatlar turlari – xo'jalik faoliyatini muvofiqlashtirish uslubi, operatsion (funktsional) belgilari, o'ziga xos xususiyatlari, iste'mol qilish davri, xizmatlarni ko'rsatuvchi va iste'molchining munosabati, xizmatlarni ko'rsatish vaqtida mijozlarning ishtirok etishiga bog'liqligi, xizmat ko'rsatish shakllari hamda samaradorlikka ta'sir etishiga ko'ra, alohida belgilari bo'yicha guruhlariga ajratilib tasniflandi.

Respublikamiz iqtisodiyoti uchun DXSHning asosiy afzalliklari quyidagilarda namoyon bo'ladi: qisqa davrda ijtimoiy ahamiyatga ega loyihalarni amalga oshirish imkoniyatlarining mavjudligi; iqtisodiyotning barcha sohalari va tarmoqlarida foydalanish imkoniyatining mavjudligi; davlat ob'ektlariga xususiy moliyalashtirish bo'yicha ko'proq miqdorda mablag'larni jalb qilish imkoniyatlari; avtomobil yo'llarini saqlash, ta'mirlash va ekspluatatsiya qilishga davlat xarajatlarini qisqarishi; xususiy mablag'lar hisobiga davlat ijtimoiy ob'ektlarini bunyod etishga moliyalashtirish; davlat va xususiy sub'ektlar o'rtasida risklarni taqsimlash; ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlanishida zamonaviy texnika va texnologiyalarni joriy etish imkoniyatlari.

Xizmat ko'rsatish sohasida DXSHning asosiy shakllari davlat shartnomalari asosidagi o'zaro hamkorlik, ijara kelishuvi, lizing kelishuvi, xizmat (mahsulot)larni taqsimlash bo'yicha kelishuvlar, investitsion kelishuvlar, konsession munosabatlar, aksionerlik jamiyatlari shakllanishi, davlat korxonalarida xususiy kapitalning ishtiroki va innovatsion faoliyat kabi ko'rinishlardan iborat (1-rasm).

DXSHning muayyan modelini tanlash ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan muhim ahamiyatga ega loyihalarni realizatsiya qilishga bog'liq bo'lib, ularga davlat va xususiy sheriklar o'rtasida mas'uliyatni taqsimlashga asoslangan operator modeli, soliqqa tortishning mustaqil ob'ektlariga xizmat ko'rsatish murakkab bo'lganda qo'llaniladigan kooperatsiya modeli, joriy xarajatlarni pasaytirishga yo'naltirilgan shartnomaviy model, davlat tomonidan xususiy sektorga bino, inshootlar, ishlab chiqarish vositalari, transport vositalari, muhandislik majmualarini ijaraga berishni nazarda tutadigan moliyaviy lizing hamda yirik ijtimoiy-iqtisodiy loyihalarni realizatsiya qilishda qo'llaniladigan konsessiya modeli kabilardan foydalaniladi. Turli xil yondashuvlarga asoslanadigan bo'lsak, konsessiya modeli DXSHning quyidagi sabablarga ko'ra, rivojlangan shakli hisoblanadi: konsession munosabatlar uzoq muddatli tavsifga ega; tadbirkorlik tuzilmalarida konsessiyalar boshqaruv qarorlarini qabul qilishda erkinlikka ega bo'ladi; konsessioner tomonidan shartnoma shartlari buzilganda, davlat xususiy sektorga muayyan darajada ta'sir etish imkoniyatiga ega bo'ladi.



1-rasm. Xizmat ko'rsatish sohasida DXSHning asosiy shakllari⁹

Xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanish strategiyasini yaratish va joriy etish davlat hokimiyatining mahalliy va o'zini o'zi boshqarish organlarini ichki va tashqi omillariga ta'sir ko'rsatishga majbur qiladi. Bu holat soha korxonalari faoliyatini boshqarish siyosati modellarini ishlab chiqishga ko'maklashadi.

Iqtisodiyotning transformatsiyalashuvi sharoitida ijtimoiy ahamiyatga ega strategik loyihalarni boshqarish va moliyalashtirish bo'yicha xususiy sektorning ishtirokini ta'minlash alohida o'ringa egadir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, DXSH loyihalarini boshqarish mexanizmi davlat sektori faoliyati samaradorligini oshishi bo'yicha jiddiy sifat o'zgarishlarga shart-sharoit yaratadi.

⁹ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Davlat DXSHda tomonlarning biri sifatida namoyon bo'luvchi va riskni o'z zimmasiga olgan holda sug'urtalashdan moddiy manfaatdor bo'lgan holda ushbu tizimdan to'liq foydalanishi kerak. Davlat DXSH ishtirok eta turib, mulkiy (davlat mulkining to'liq yoki qisman yo'qolishi), siyosiy (mamlakatda siyosiy parokandalik muhiti va milliy investorlarning xorijdagi siyosiy tartibsizliklardan himoyalanganligi), ijtimoiy (butun jamiyat va fuqarolarni himoyalash bo'yicha davlatning ijtimoiy funksiyalarini bajarilmasligi xavfi), moliyaviy (byudjet mablag'larini maqsadsiz ishlatish, turli xil xavf-xatarlar sababli ko'zda tutilmagan qo'shimcha xarajatlar, davlat maqsadli dasturlari va investitsiyalarni samarasiz boshqarish kabilar), jamoat (aholining noroziligi, xalqaro tashkilotlar tomonidan salbiy munosabatlarning bildirilishi, davlatning reytingini pasaytirish, mamlakat obruiga zarar keltirish) tavsifidagi xatarlar bo'yicha qarorlar qabul qilishda mas'uliyatni oshiradi.

Davlat-xususiy sherikligida risklarni baholash tizimi risklarni sug'urtalash, davlatning funksiyalarini shakllantirish, risklarni ommalashganlik ko'lamini aniqlash, ularni ta'sir ko'rsatish darajasini baholash hamda risklarni taqsimlash mezonlari asosida modifikatsiyalandi.

Xususiy biznesning ishtirokida davlat funksiyalarini realizatsiya qilishda DXSH loyihalarining hamkorlik asosi quyidagilardan iborat: DXSH mexanizmi asosida ko'p hollarda xususiy va jamoat manfaatlariga xizmat ko'rsatish o'rtasida qarama-qarshiliklar hal qilinadi, davlat va hokimiyatning o'zaro munosabatida yuqori madaniyat shakllanadi; DXSHning yuqori ijtimoiy ahamiyati shundan iboratki, DXSH dasturlarini to'liq realizatsiya qilishdan pirovardida iste'molchi eng ko'p foydani oladi; iqtisodiy beqarorlik holatlarida aynan DXSH ham makrodarajada, ham alohida sub'ektlar darajasida oldin boshlangan muhim ijtimoiy loyihalarni davlat tomonidan davom ettirish va yakunlash imkoniyatini yuzaga keltiradi; xususiy sektor davlatni byudjetdan to'g'ridan-to'g'ri qilinadigan to'lovlardan ozod qilgan holda, moliyaviy resurslar bilan ta'minlaydi.

DXSH loyihalarni realizatsiya qilishda o'z kapitalidan foydalanuvchi xususiy sektor bilan shartnoma tuzish uchun davlat sektori tomonidan qo'llaniladigan innovatsion usullarga murojaat qiladi. Bu vaqtda davlat sektori aholini mazkur xizmatlar bilan oqilona ta'minlash mas'uliyatini o'z zimmasiga oladi va iqtisodiyotni rivojlantirish hamda aholining turmush sifatini oshirishga samarali ta'sir ko'rsatadi.

Hozirgi vaqtda rivojlangan davlatlar iqtisodiyoti infratuzilmaning yangi shakllarini yaratish va tartibga solishda davlat va xususiy sektorning sa'yi-harakatlarini birlashtirishni nazarda tutadi. Jahon miqyosida DXSH mexanizmini samarali joriy etishda har bir mamlakat mustaqil va xolisona tarzda DXSH modellari, uning shakllari va mexanizmlarini aniqlaydi. Tahliliy ma'lumotlarning miqdoriy jihatdan taqqoslanishiga nazar tashlasak, rivojlangan mamlakatlarda sog'liqni saqlashga yo'naltirilgan loyihalar soni boshqa tarmoqlarga nisbatan ustunlik qiladi. Shuningdek, Buyuk Britaniya va Germaniyada ta'limga qaratilgan loyihalar soni ham yuqori ko'rsatkichga ega (1-jadval).

Rivojlangan mamlakatlarda DXSH loyihalaridan foydalanish bo'yicha asosiy ko'rsatkichlar¹⁰

Davlatlar	Xizmat ko'rsatish sohasida DXSH loyihalarini realizatsiya qilish										Jami
	Avtoyo'llar	Sog'liqni saqlash	Ta'lim	Ko'priklar va tunellar	Aeroportlar	Yengil metro	Temir yo'llar	UJKX	Chiqindilarni qayta ishlash	Ijtimoiy uylar	
AQSh	32			2		1					34
Buyuk Britaniya	12	123	113			9	3		19	22	301
Germaniya	10	3	24				1	1			39
Italiya	23	32		5		12	1		4		77
Kanada	10	14	1	3		1	1				30
Fransiya	5	12		3		2	1				23
Yaponiya								1			1
Jami	92	184	138	13	0	25	7	2	23	22	505

Xizmat ko'rsatish sohasida davlat va biznes o'rtasidagi sheriklik munosabatlarini rivojlantirish bo'yicha iqtisodiyoti rivojlangan davlatlar tajribalaridan foydalanish hamda ularning tajribalaridan amalda foydalanish DXSH samaradorligini oshirishning muhim yo'nalishi bo'lib hisoblanadi. Shunga ko'ra, tadqiqot ishida Qoraqalpog'iston Respublikasida xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanish xususiyatlaridan kelib chiqib, DXSHni joriy etishning yetakchi davlatlar tajribalaridan foydalanish bo'yicha takliflar ishlab chiqildi. Unga ko'ra, xizmat ko'rsatish sohasida DXSHni rivojlantirishning me'yoriy-huquqiy bazasini takomillashtirish; xorijiy investitsiyalarini xizmat ko'rsatish tarmoqlarini rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlari bo'yicha taqsimlash tizimini takomillashtirish; xalqaro amaliyotda mavjud konsession kelishuvlar turlaridan keng foydalanish; davlat mulkidan foydalanish samaradorligi ko'rsatkichlarini o'sishi va xizmatlar sifatini oshirish; tomonlar kuchlarni birlashtirish orqali ko'pgina risklardan himoyalaniшни ta'minlash, yashirin risklarni aniqlash, ularni sug'urtalashning mos keladigan uslubini tanlash, yirik ijtimoiy-iqtisodiy loyihalarni realizatsiya qilishda qo'llaniladigan konsessiya modelidan DXSHda keng foydalanish.

Dissertatsiya ishining **“Xizmat ko'rsatish sohasida davlat-xususiy sherikligi rivojlanishini baholash uslubiyatini takomillashtirish”** deb nomlangan ikkinchi bobida respublikada xizmat ko'rsatish sohasida davlat-xususiy sherikligi samaradorligini baholash metodikasi takomillashtirilgan hamda sohada davlat-xususiy sherikligining rivojlanishida klaster yondashuvlarining xususiyatlari

¹⁰ https://www.researchgate.net/publication/313412685_Analiz_mirovogo_opyta_primenenia_mehanizma_gosudarstva_enno-castnogo_partnerstva

baholangan. Shuningdek, xizmat ko'rsatish sohasida davlat-xususiy sherikligi rivojlanishining investitsion faolligini modellashtirish ilmiy-uslubiy jihatdan tadqiq qilingan.

Yangi O'zbekistonning taraqqiyoti jarayonida iqtisodiyotni tartibga solishning davlat va bozor mexanizmi elementlari muvofiqligini ta'minlagan holda xo'jalik faoliyatining samarali shakllarini joriy etish barqaror rivojlanishni ta'minlashning muhim sharti hisoblanadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi hududlarida aholining farovonligini oshirish va turmush sifatini yaxshilash, xususan, kambag'allikni qisqartirish vazifalari ko'p jihatdan iqtisodiyotning barcha tarmoq va sohalarining raqobatbardoshligini oshirish hamda tadbirkorlikni rivojlantirish uchun fundamental sharoitlarni yaratib berish hisobiga yangi va barqaror ish o'rinlarini tashkil etish bilan bevosita bog'liqdir. Shu o'rinda respublikada yangi ish o'rinlarini yaratishda xizmat ko'rsatish sohasining roli kattadir. Chunki xizmat ko'rsatish sohasi jadal suratlar bilan rivojlanib borish tendensiyasiga ega bo'lib, unda mehnat taqsimotini kengayishi va inson kapitalining rivojlanishi uchun zaruriy shart-sharoitlar yaratilmoqda. Bu esa sohada innovatsion-investitsion faoliyatni rivojlantirish, davlat-xususiy sherikligi samaradorligini oshirish uslubiyatini takomillashtirish lozimligini ifodalaydi.

2-jadval


Davlat-xususiy sherikligi mexanizmini amalga oshirish shakllari¹¹

Turlari	Ekspluatatsiya va foydalanish	Kapital qo'yilmalar	Tijorat xavfi	Aktivlar	Muddati (yil)
Ochiq iqtisodiy zona	Davlat-xususiy sheriklik	Davlat-xususiy sheriklik	Taqsimlangan	Davlat	20 yilgacha
Aksiyadorlik jamiyatlari	Davlat-xususiy sheriklik	Davlat-xususiy sheriklik	Taqsimlangan	Davlat	3 yilgacha
MTSh	Xususiy	Xususiy	Xususiy	Davlat	25 yil va undan ortiq
Boshqaruv shartnomasi	Xususiy	Davlat	Davlat	Davlat	3-5 yil
Xizmat ko'rsatish shartnomasi (outsourcing)	Davlat-xususiy sheriklik	Davlat-xususiy sheriklik	Davlat	Davlat	1-3 yil
Lizing shartnomasi	Xususiy	Davlat	Davlat	Davlat	5 yil va undan ortiq
Davlat shartnomasi	Davlat	Davlat	Davlat	Xususiy	1 yil
Konsessiya shartnomasi	Xususiy	Xususiy	Xususiy	Davlat	20-30 yil
Ijara shartnomasi	Xususiy	Davlat-xususiy	Taqsimlangan	Davlat	5-20 yil

¹¹ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

DXSHda hamkorlar uchun samaradorlikni baholash uslubiyati muayyan darajada noaniq va bir xil tavsifga ega bo'lib, tomonlarning har biri uchun bu dolzarbdir. Shuning uchun hamkorlarning o'zaro manfaatli munosabatlarini amalga oshirish shakllari va shartlarini tanlash, muayyan DXSH loyihasining maqsad va vazifalarini shakllantirish ham davlat, ham xususiy sektor sub'ektlari tomonidan ob'ektiv va ochiq bo'lishi zarur.

2-jadvalda davlat va xususiy sektor o'rtasida loyihalarni realizatsiya qilish va moliyaviy resurslarni taqsimlash muddatlarida DXSH shakllarini tanlashga bog'liqligi keltirilgan. Mazkur shakllar doimiy tarzda qo'laniladi va DXSHni realizatsiya qilishda xususiy biznes ishtiroki muhim hisoblanadi. Davlat mulkidan foydalanish bo'yicha mahalliy hokimiyat organlari va ishlab chiqarishning bevosita ishtirokchilari o'rtasidagi hamkorlik munosabatlarining o'rnatilishi davlat mulkini boshqarish tizimini qurishda funksiyalarni aniq taqsimlash zarurligini nazarda tutadi. DXSH loyihalarini realizatsiya qilish jarayonida investorlar milliy qonunchilik normalariga rioya qilish, hamkorlikni rasmiylashtirish tartibining shaffofligiga e'tibor qaratishni zarurat etadi.



2-rasm. Davlat hokimiyati organlari va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlik munosabatlari tizimi¹²


DXSHning maqsadi bo'lib, muayyan hududlar doirasida yoki iqtisodiyotning muayyan segmentida ijtimoiy ahamiyatga ega loyihalarni realizatsiya qilish asosida jamiyat ehtiyojlarini qondirish hisoblanadi.

¹² Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Mavjud uslubiy yondashuvlar va vositalar hamda davlat va xususiy biznes o'rtasida o'zaro munosabatlar yuzasidan o'tkazilgan tadqiqot natijalari asosida Qoraqalpog'iston Respublikasida DXSH tizimi shakllanishi 2-rasmda keltirilgan.

Xizmat ko'rsatish sohasida davlat-xususiy sherikligi loyihasini baholash uslubi boshlang'ich ko'rsatkichlarning o'zgarishiga bog'liq holda olingan ko'rsatkichlar sezgirligining nisbiy tavsifini ifodalovchi elastiklik koeffitsiyentini aniqlash asosida takomillashtirildi.

DXSH loyihalarini realizatsiya qilish hamkorlik shartnomalarining ketma-ketligida amalga oshirilishini hisobga olsak, loyiha samaradorligini baholash va unga iqtisodiy risklarning ta'siri tahlil natijalari orqali tanlanishi mumkin. Uning mohiyati loyihaning u yoki bu dastlabki parametrlarining tayanch qiymatdan chetga chiqishning natijaviy loyiha ko'rsatkichlariga ta'sir darajasini o'lchashdan iborat.




3-rasm. Loyiha samaradorligi mezonlarining o'zgaruvchan parametrlar o'zgarishiga sezgirligi diagrammasi¹³

Buning uchun foyda va xarajatlar shakllanishida ishtirok etuvchi barcha parametrlarning asosiy qiymati loyihada (sof joriy qiymat, rentabellikning ichki normasi, daromadlilik indeksi va h.k.) samaradorlik mezonlarini hisoblash natijalariga ega bo'lishi lozim. Undan keyin har qanday parametr qiymati o'zgaradi (oshadi yoki kamayadi) va mezonning yangi qiymati loyihada keltirilgan boshqa ko'rsatkichlarning asosiy qiymatlari bilan hisoblanadi. Undan keyin tartib barcha muhim omillar uchun takrorlanadi. Hisob-kitob natijalari asosida sezuvchanlik diagrammasi yoki jadvali tuziladi, uning ko'magida loyihaning samaradorligiga ta'sir ko'rsatuvchi ahamiyatli omillar aniqlanadi. Agarda samaradorlik mezonlarining muayyan omillarni o'zgarishiga bog'liqligi qanchalik kuchli bo'lsa, noaniqlik shunchalik yuqori bo'ladi. 3-rasmda buni kuzatish mumkin, ya'ni to'g'ri chiziqning absissa o'qiga moyillik bo'rchagi qanchalik katta

¹³ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

bo'lsa, bu omil loyiha samaradorligi mezoniga shunchalik katta ta'sirga ega bo'ladi.



4-rasm. Davlat-xususiy sherikligi munosabatlarida klasterning shakllanishi¹⁴

Boshlang'ich ko'rsatkichlarning o'zgarishiga bog'liq holda olingan ko'rsatkichlar sezgirligining nisbiy tavsifi elastiklik koeffitsiyenti hisoblanadi. Parametrlarning bir foizga o'zgarishi bilan samaradorlik mezonini necha foizga o'zgarishini aniqlaydi.

$$K_{el} = \frac{\Delta SJQ / SJQ}{\Delta O / O}, \quad (1)$$

bu yerda: K_{el} – elastiklik koeffitsiyenti;

SJQ , O – sof joriy qiymatning bazaviy qiymati va tadqiq qilingan omil;

¹⁴ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan..

ΔSJQ , ΔO – sof joriy qiymatning o'zgarishi va tadqiq qilingan omilning o'zgarishi.

Koeffitsiyent manfiy (investitsiyalarning ko'payishi yoki kamayishi sof joriy qiymatning kamayishi yoki oshishiga olib keladi) yoki musbat (mahsulot birligiga narxning pasayishi yoki oshishi sof joriy qiymatning pasayishi yoki oshishiga olib keladi) bo'lishi mumkin. Ammo hisob-kitoblarni amalga oshirayotganda elastiklik koeffitsiyenti belgisi qoldirilishi mumkin, ya'ni koeffitsiyentning mutlaq qiymatiga e'tibor qaratiladi.

Klaster tashkiliy tuzilmasining shakllanishi innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish va rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Davlat-xususiy sherikligi munosabatlarida klaster tizimini joriy etishning ishlab chiqarishni integratsiyalash, byudjet samaradorligini ta'minlash, yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirish, korxonalar imkoniyatlarini birlashtirish hamda boshqaruvning zamonaviy uslublari va vositalarini joriy etish orqali sinergitik samaraga erishishi asoslandi (4-rasm)ga qarang.



5-rasm. Xizmat ko'rsatish sohasida DXSH rivojlanishining investitsion vositalarini faollashtirish mexanizmi algoritmi¹⁵

DXSHni xolis baholash uchun investitsion loyihalarni amalga oshirishda klaster yondashuvi muhim ahamiyatga ega. Chunki klaster DXSH mexanizmini

¹⁵ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

amalg oshirishning asosi hisoblanadi va klasterlashtirishda davlatning ishtiroki uni realizatsiya qilishning muhim sharti hisoblanadi. Klaster yondashuvi DXSHning optimal hisoblangan ob'ektidir.

DXSHdan foydalangan holda klaster yondashuvi g'oyasi aralash iqtisodiyot nazariyasiga asoslanadi, ammo davlat va biznes o'rtasidagi har qanday o'zaro ta'sirni DXSH deb hisoblash mumkin emas. Bunda mezon tadbirkorlar tomonidan an'anaviy tarzda davlat funksiyalarini bajarish e'tiborga olinadi.

Xalqaro tajribalarning ko'rsatishicha, xizmat ko'rsatish sohasida DXSH rivojlanishining investitsion vositalarini faollashtirish mexanizmini realizatsiya qilish maqsadga muvofiq bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Xizmat ko'rsatish sohasida davlat-xususiy sherikligi loyihalarini realizatsiya qilish va samaradorligini oshirish bosqichlari algoritmini shakllantirish asosida davlat va xususiy biznes hamkorligi rivojlanishining investitsion faolligini oshirish modeli taklif qilindi (5-rasm).

Investitsion loyihalarni realizatsiya qilish uchun quyidagi vazifalarni hal qilish zarur: investitsion loyihani amalga oshirishning strategik rejasini ishlab chiqish; xizmat ko'rsatish sohasi korxonalari va tashkilotlarida investitsion mavjud risklarni aniqlash, tahlil qilish va baholash; investitsion loyihalarni realizatsiya qilish davrida uning manbalarini aniqlash; mahalliy ijro hokimiyati va o'z-o'zini boshqarish organlari tomonidan investitsion loyihalarni asoslash va ularni ekspertizadan o'tkazish; mamlakatda makroiqtisodiy rivojlanish bo'yicha investitsion siyosatning maqsad va yo'nalishlarini aniqlash; mamlakatda turli darajalarda iqtisodiyot tarmoqlarining rivojlanish dasturlarini ishlab chiqish va samaradorligini baholash; investitsion dasturlar va DXSH loyihalarini realizatsiya qilish; investitsion dasturlar va DXSH loyihalarini moliyalashtirish.

Dissertatsiya ishining **“Qoraqalpog'iston Respublikasi xizmat ko'rsatish sohasida davlat-xususiy sherikligining rivojlanish holati va omillari tahlili”** deb nomlangan uchinchi bobida respublikada xizmat ko'rsatish sohasida investitsion jozibadorlikni oshirish omillari va ta'lim xizmatlari bozorida davlat-xususiy sherikligi loyihalarini boshqarish holati tahlil qilinib, sohada davlat-xususiy sherikligi loyihalarida risklarni boshqarish tizimi tadqiq qilingan.

Hozirgi davrda jahon davlatlari taraqqiyoti o'zining oldingi bosqichlaridan ma'no va mazmuni bo'yicha keskin farq qiladi. Iqtisodiy rivojlanishning yangicha mazmuni jahon iqtisodiyoti fanida raqamli ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatishga asoslangan konseptual yondashuvlarni talab qilmoqda. Xususan, servis iqtisodiyotida natijani oshirishga yo'naltirilgan faoliyat industrial rivojlanishga nisbatan ancha keng tahlil qilinganki, bunda avvalambor faoliyatning ijtimoiy yo'naltirilganligi jamiyatda aholi farovonligini oshirishga qaratilganligi asosida izohlanadi.

Respublikaning xizmat ko'rsatish sohasida amalga oshirilayotgan tub islohotlar natijasida iqtisodiy faoliyatning barcha turlari bo'yicha tarkibiy transformatsiyalashuv amalga oshmoqda. Jumladan, 2017-2021 yillar boshidagi dastlabki tahliliy ma'lumotlarga ko'ra, 2017 yil boshida jami xizmatlar tarkibida eng yuqori ko'rsatkich transport xizmatlari (logistika xizmatlarini qo'shgan holda)

(34,1%) hissasiga to'g'ri kelgan bo'lsa, 2021 yil boshida esa savdo va ovqatlanish xizmatlarining ulushi (29,7%) yuqori bo'lgan.

3-jadval

Qoraqalpog'iston Respublikasida xizmat ko'rsatish soha va tarmoqlarining tarkibi¹⁶, jamiga nisbatan foizda

Xizmat turlari	2017 y.	2018 y.	2019 y.	2020 y.	2021 y.
Jami – xizmatlar	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	6,0	6,8	6,4	5,4	6,7
Kompyuterli dasturlash xizmatlari	0,0	0,0	0,0	0,2	0,3
Moliyaviy xizmatlar	6,1	8,0	8,3	8,4	10,8
Transport xizmatlari (logistika xizmatlarini qo'shgan holda)	30,4	27,7	25,0	27,8	28,1
Qurilish xizmatlari	14,8	13,2	11,7	4,8	6,0
Texnologik uskunalarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish	0,7	0,8	0,8	0,5	2,0
Qishloq xo'jalik texnikalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish	0,1	0,1	0,1	0,2	0,2
Turizm-sayohat xizmatlari (mehmonxonalar xizmatini qo'shgan holda)	0,5	0,5	0,4	0,5	0,6
Savdo va ovqatlanish xizmatlari	17,4	17,3	21,3	22,3	29,7
Maishiy xizmatlar	1,8	1,7	1,3	3,2	4,3
Ta'lim xizmatlari	2,5	2,6	2,7	2,8	3,7
Sog'liqni saqlash xizmatlari	1,1	1,3	1,3	1,4	1,6
Qishloq xo'jaligi sohasi xizmatlari	0,5	0,5	0,5	0,6	0,6
Boshqa xizmatlar	18,1	19,5	20,2	21,9	5,4

Hozirgi vaqtda aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (6,7%), kompyuterli dasturlash xizmatlari (0,3 %), texnologik uskunalarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish (2,0 %), qishloq xo'jalik texnikalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish (0,2%), turizm-sayohat xizmatlari (mehmonxonalar xizmatini qo'shgan holda) (0,6%), maishiy xizmatlar (4,3%), ta'lim xizmatlari (3,7%), sog'liqni saqlash xizmatlari (1,6%), qishloq xo'jaligi sohasi xizmatlari (0,6%) kabilarda muntazam o'sib borish tendensiyasi kuzatilmoqda (3-jadval).

Bu davrda “yalpi ichki mahsulotga nisbatan xizmatlar ko'rsatishning o'sib borish tendensiyasi kuzatila boshlandi, buning natijasida ushbu tarmoqning mamlakatimiz hududlari iqtisodiyotiga qo'shayotgan hissassi oshdi. Bu holat, bizningcha, respublikaning yirik sanoat tarmoqlari: savdo va umumiy ovqatlanish, transport va aloqa, kommunal, moliya va boshqalarning hissassi bilan bog'liq. Eng muhimi, avvallari asosan davlat tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlar asta-sekin xususiy bozor xarakteriga ega bo'ldi”¹⁷.

¹⁶ Manba: Qoraqalpog'iston Respublikasi Davlat statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida hisoblangan.

¹⁷ Musagaliev A.J., and etc. General Analysis of Services in the Economic Development of Regions in Uzbekistan / Asian Journal of Advances in Research. Volume 17. Issue 4. 2022. - Pages: 221-226.

2021 yilda Qoraqalpog'iston Respublikasidagi Maktabgacha ta'lim vazirligi tizimidagi turli mulkchilik shaklidagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarining hududlar kesimida taqsimlanishi¹⁸

T/r	Hudud nomi	3-7 yosh bolalar soni	Umumiy MTTlar soni			Shundan:											
			Soni	Qamrov	Xodimlar soni	Davlat			Xususiy			DXSH			Oilaviy		
						Soni	Qamrov	Xodimlar soni	Soni	Qamrov	Xodimlar soni	Soni	Qamrov	Xodimlar soni	Soni	Qamrov	Xodimlar soni
	Qoraqalpog'iston Respublikasi	153464	1427	116742	19803	436	85551	17303	11	719	64	83	7301	746	897	23171	1690
1	Nukus shahri	22878	187	18997	3230	58	14962	3044	9	523	33	10	957	38	110	2555	115
2	Amudaryo	16613	123	11727	1930	51	9747	1735				4	285	59	68	1695	136
3	Beruniy	17342	334	16402	2475	53	7406	1826				8	731	74	273	8265	575
4	Qonliko'l	4159	24	2740	597	13	2391	551				5	261	32	6	88	14
5	Qorao'zak	4216	30	3028	553	14	2671	522				4	130	7	12	227	24
6	Kegeyli	5617	60	3939	599	13	2727	497				3	301	12	44	911	90
7	Qo'ng'iro't	10326	95	9151	1571	33	6995	1329	2	196	31	10	769	103	50	1191	108
8	Muynoq	2356	27	2145	622	17	1820	608				2	180	6	8	145	8
9	Nukus t.	4619	55	3462	591	16	2302	543				3	288	12	36	872	36
10	Taxiatosh	5771	42	4073	791	16	3261	718				5	323	31	21	489	42
11	Taxtak'o'pir	3154	42	3017	739	16	2516	718							26	501	21
12	To'rtko'l	17811	68	12000	1521	34	10362	1417				8	913	49	26	725	55
13	Xo'jayli	8976	78	6460	1258	23	4693	1063				5	495	71	50	1272	124
14	Chimboy	9540	78	6190	1252	30	4559	1086				5	443	80	43	1188	86
15	Shumanay	3752	38	2991	484	10	2341	423				1	56	7	27	594	54
16	Ellikqal'a	14506	132	9460	1391	31	5976	1036				10	1169	165	91	2315	190
17	Bo'zatov	1828	14	960	199	8	822	187							6	138	12

¹⁸ Muallif tomonidan Qoraqalpog'iston Respublikasi maktabgacha ta'lim vazirligi ma'lumotlari asosida ishlab chiqilgan.

Qoraqalpog'iston Respublikasida Maktabgacha ta'lim vazirligi tizimidagi turli mulkchilik shaklidagi maktabgacha ta'lim tashkilotlari (MTT)ning hududlar kesimida taqsimlanishiga ko'ra, 2021 yilda umumiy MTTlar soni 1427 tani tashkil qilgan. Shundan, davlat mulkiga asoslanganlari – 436 ta, xususiy MTTlar – 11 ta, DXSH asosida tashkil qilinganlari – 83 ta va oilaviy MTTlar – 897 tani tashkil qilgan. Respublika bo'yicha MTTlarning qamrovi 116742 nafar bolani tashkil qilib, bu ko'rsatkich jami 3-7 yoshdagi bolalar sonida 76,1 %ni tashkil qiladi. MTTlarda faoliyat yuritayotgan xodimlar soni 2021 yilda 19803 kishini tashkil qilib, uning 87,4 %i davlat MTTlari, 0,3 %i xususiy MTTlar, 3,8 %i DXSHlar asosida tashkil qilingan MTTlar va 8,5 %i oilaviy MTTlar hissasiga to'g'ri kelgan. Xususiy MTTlar faqatgina Nukus shahri (9 ta) va Qo'ng'iro't tumanida (2 ta) faoliyat yuritmoqda. DXSH asosida tashkil qilingan MTTlar Taxtakopir va Bo'zatov tumanlaridan boshqa barcha hududlarda faoliyat yuritmoqda. DXSH asosida tashkil qilingan MTTlar eng ko'p Nukus shahri (10 ta), Qo'ng'iro't tumani (10 ta), Ellikqal'a tumani (10 ta) hissasiga to'g'ri kelmoqda (4-jadval).

2021 yillarda Maktabgacha ta'lim vazirligi tizimidagi turli mulk shaklidagi tashkilotlarda hududlar kesimida bolalar qamrovi va moliyalashtirish ko'rsatkichlariga nazar solsak, 2021 yilda DXSH asosidagi MTTlarga qamrab olingan 3-7 yoshli bolalar soni 610 tani tashkil qilgan holda, uning jamiga nisbatan qamrov darajasi 0,4 %ni tashkil etgan.

Xizmat ko'rsatish sohasida DXSH loyihalarini realizatsiya qilish loyihaaning iqtisodiy jihatdan asoslanganligini tahlil qilish orqali mavjud risklarni minimallashtirish hamda va barcha manfaatdor tomonlar faoliyatlarini muvofiqlashtirish bilan bog'liq murakkab vazifa hisoblanadi. DXSH loyihalarini realizatsiya qilish uchun davlat sektori va xususiy biznes tomonidan mavjud risklarni tasniflashi va aniq ko'rsatishi zarur. Sohada risklarni boshqarish DXSH loyihasining butun amal qilishi mobaynida amalga oshiriladi hamda risklarni yuzaga kelishini oldindan ogohlantirish va loyihani realizatsiya qilish bosqichida bartaraf etishga undaydi. Xizmat ko'rsatish sohasida davlat-xususiy sherikligi loyihalarida risklarni boshqarish tizimi davlat-xususiy sherikligi loyihalarini realizatsiya qilish bo'yicha asosiy va maxsus risklarni tasniflash asosida takomillashtirildi.

Dissertatsiya ishining **“Xizmat ko'rsatish sohasida davlat-xususiy sherikligining rivojlanish istiqbollari va ustuvor yo'nalishlari”** deb nomlangan to'rtinchi bobida respublikaning xizmat ko'rsatish sohasida investitsion faoliyat samaradorligini oshirish uslubiyati, sohada DXSHni tartibga solish mexanizmini takomillashtirish hamda xizmat ko'rsatish sohasida DXSH rivojlanishining ustuvor yo'nalishlari va istiqbollari bo'yicha ilmiy asoslangan xulosa va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Hududlarning investitsion salohiyatini oshirish bo'yicha respublikada qabul qilinayotgan boshqaruv qarorlari va chora-tadbirlarining yagona tizimini yaratish xizmat ko'rsatish sohasida investitsion faoliyatni rivojlantirish bo'yicha mavjud vazifalarni kompleks hal qilish imkonini beradi. Hudud investitsion salohiyati hududda ishlab chiqarish omillarini mavjudligi, xo'jalik faoliyati natijalari, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishi darajasi va muhiti, iste'mol darajasi va

turmush sifati, infratuzilma bilan ta'minlanganligi hamda investitsion risklar esa investitsiyalardan kutilayotgan daromadlarning yo'qotilishi ehtimolidan kelib chiqib baholanishi kerak.


Hududning investitsion salohiyatini reyting baholash uchun hosil bo'lgan ko'rsatkichlar qiymatlarini muntazam kamayish ketma-ketligida tartiblanadi. Birinchi o'rinda umumiy ko'rsatkichning eng yuqori qiymati bo'yicha aniqlangan hudud joylashtiriladi. Hududlar investitsion jozibadorligini xususiy ko'rsatkichlar asosida integral baholanadi va reytingi aniqlanadi. Hudud investitsion jozibadorligin integral baholashni quyidagi formula orqali aniqlanadi¹⁹:

$$T_i = 1 - \sqrt{\sum_{j=1}^4 (1 - T_{ij})^2 \cdot p_{ij} + T_{i5}^2 \cdot p_{i5}} \quad , \quad (2)$$

bu yerda T_i – i -hudud investitsion jozibadorligini integral bahosi;

$p_{ij}, (j = \overline{1,5})$ – hudud investitsion jozibadorligini integral baholashda j -guruhdagi i - hududning kompleks ko'rsatkichi vazni.

Reyting baholashni amalga oshirish hududlarning integral ko'rsatkichlari bo'yicha hosil bo'lgan qiymatlari asosida kamayish tartibida belgilanadi. Birinchi o'rinda eng yuqori qiymatiga ega hudud kiritiladi (6-rasm).



6-rasm. Qoraqalpog'iston Respublikasi hududlarida investitsion jozibadorlik reytingi, 2021 yil 1-yanvar holati uchun²⁰

¹⁹ Бешелев С.Д., Гурвич Ф.Г. Математико-статистические методы экспертных оценок. М.: Статистика, 1980. 263 с.; Кендэл М. Ранговые корреляции. М.: Статистика, 1975. 214 с.; Кремер Н.Ш., Путко Б.А. Эконометрика. М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2003. 311 с.

²⁰ Muallif tomonidan Qoraqalpog'iston Respublikasidagi Maktabgacha ta'lim vazirligi ma'lumotlari asosida ishlab chiqilgan.

Tadqiqot jarayonida muayyan har bir xususiy ko'rsatkichning vazni ekspert baholash orqali amalga oshiriladi. Shu bilan birga, olingan qiymatlar keyinchalik ham muayyan usullar asosida qayta tahlil qilinish imkoniyatini berishi kerak. Investision salohiyat va investision riskning muayyan turi bo'yicha vazn koeffitsiyentlari investor tanloviga asoslangan holda o'zgartirilishi va ko'rsatkichlarga qo'shimchalar kiritilishi mumkin.

Xizmat ko'rsatish sohasida jami ko'rsatilgan xizmatlar hajmi o'sishining korrelyatsion-regression tahlil usullari yordamida omillar o'rtasidagi bog'liqlik kuchini aniqlash hamda baholash asosida xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanish istiqbollari va mexanizmlari aniqlanadi. Bu holatda model tuzilishining eng asosiy bosqichi natijaviy, istiqbolashtirilgan ko'rsatkichning tanlab olingan omillarga bog'liqligini ifodalovchi ekonometrik ifodani tanlashdan iborat.

5-jadval

Ko'p omilli ekonometrik modelning parametrlarini aniqlash natijalari²¹

	Standartlashtirilmagan koeffitsiyentlar		Standartlashtirilgan koeffitsiyentlar	t-statistika	Ehtimolligi
	Koeffitsiyent	Standart xatolik	Beta		
A0	38488,5	1,5075		76,011	0,0000002
A ₁ (X ₁)	50,332	0,0185	0,338	1,158	0,3112491
A ₂ (X ₂)	10968,9	0,0099	0,176	0,306	0,7746537
A ₅ (X ₅)	52,241	0,0363	-0,221	-0,461	0,6688525
A ₆ (X ₆)	34,95	0,0151	0,223	1,601	0,746321
A ₈ (X ₈)	243,54	0,0009	-1,824	-4,641	0,0097303
A ₁₀ (X ₁₀)	769,28	0,0587	1,025	0,147	0,00124

Modelning statistik tanlanmasiga Qoraqalpog'iston Respublikasining 2011-2021 yillardagi xizmat ko'rsatish sohasi rivojlanishini ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlari kiritildi. Eng kichik kvadratlar usuli orqali hisoblash EvIEWS dasturida bajarilib, 5-javdalda keltirilgan natijalar olindi.

Bunda: Natijaviy omil (bog'lik o'zgaruvchi) – Y; usul – eng kichik kvadratlar; tanlanma – 2011-2021 yillar; ko'zatuvlar soni – 10 ta; ta'sir etuvchi omillar – 6 ta.

6-jadval

Ekonometrik modelning sifati va ahamiyatini tekshirish mezonlari²²

Ko'p omilli korrelyatsiya koeffitsiyenti R	Ko'p omilli determinatsiya koeffitsiyenti R ²	Korrektlash-tirilgan R ²	Baholashning standart xatosi	F-haqqi-qiy	Darbin-Uotson statistikasi
0,994	0,96032	0,98809	0,125	228,66	2,12

6-jadvalda keltirilgan R² determinatsiya koeffitsiyenti 0,988 ga teng bo'lib, ushbu ko'rsatkich natijaviy omil bilan tanlab olingan ta'sir etuvchi omillar o'rtasida bog'lanish yetarlicha zich ekanligini ko'rsatadi, ya'ni xizmat ko'rsatish

²¹ Muallif tadqiqotlari asosida tuzilgan.

²² Muallif tadqiqotlari asosida tuzilgan.


sohasida jami xizmatlar hajmi (Y) 100 % ko'p omilli ekonometrik model uchun tanlab olingan ta'sir etuvchi omillarga, qolgan 1 % esa hisobga olinmagan omillarga bog'liqdir.

(1) umumiy modelga 5-jadvalda keltirilgan parametrlarni mos holda qo'yish orqali asosida ko'p omilli ekonometrik modelning ko'rinishini quyidagicha yozamiz:

$$Y = 38488,5 + 50,332 \times x_1 + 10968,9 \times x_2 + 52,241 \times x_5 + 34,95 \times x_6 + 243,84 \times x_8 + 769,28 \times x_{10}, \quad (3)$$

Modellarni turli miqdordagi omillar bilan taqqoslash imkoniyati bo'lishi va ushbu miqdordagi omillar R^2 statistikaga ta'sir etmasligi uchun odatda korrektlashgan determinatsiya koeffitsiyentidan foydalaniladi²³. 6-jadvalda keltirilgan korrektlashgan determinatsiya koeffitsiyenti 0,98809 ga teng bo'lib, R^2 determinatsiya koeffitsiyenti qariyb tengligi ekonometrik modelga kiritilgan omillar soni o'zgarishi atrofida qiymatlar qabul qilishi kelib chiqadi.

Fisher F-mezoni asosida ekonometrik model ahamiyatli va o'rganilayotgan jarayonga adekvat ekanligi tekshirib ko'rildi. Ushbu modeldan xizmat ko'rsatish sohasida ko'rsatilgan jami xizmatlar hajmini kelgusi davrlarga prognoz qilishda foydalanish mumkin.



7-rasm. Qoraqalpog'iston Respublikasida xizmat ko'rsatish sohasida jami xizmatlar hajmi (mlrd. so'm); 2011-2022 yillardagi dinamikasi va 2023-2027 yillardagi prognoz qiymatlari, %

²³ Dimitrios Asteriou and Stephen G. Hall. Applied econometrics. A modern approach using Eviews and Microfit. Revised edition. Palgrave Macmillan, New York, 2007. – P. 140-143.

Ushbu keltirilgan ekonometrik model (3) asosida xizmat ko'rsatish sohasida jami xizmatlar hajmi o'sishining asosiy ko'rsatkichlarini 2011-2021 yillardagi qiymatlarini prognozlashtirishda regressiya tenglamasini tuzish bo'yicha mezonlarga asoslangan holda respublikaning xizmat ko'rsatish sohasida jami xizmatlar hajmini oshirishning kelgusi davrlarga prognoz qilishga ta'sir etuvchi omillarning vaqtga bog'liq trendining bir omilli regression modellari ishlab chiqildi. Ushbu trend regression modellar asosida har bir ta'sir etuvchi omilni prognoz qilib, ularning qiymatlari (3) modelga qo'yiladi.

Tadqiqot davomidagi hisob-kitoblar natijalariga ko'ra, prognozlashtirilayotgan davrda (2023-2027 yillarda) Qoraqalpog'iston Respublikasida xizmat ko'rsatish sohasida jami xizmatlar hajmi 49,5 %ga oshishi kutilmoqda (7-rasm).

Respublikada ko'rsatilgan jami xizmatlar hajmi (49,5 %), yalpi hududiy mahsulot hajmi (41,4 %), aholi jon boshiga to'g'ri kelgan xizmatlar hajmi (48,9 %), xizmat ko'rsatish korxonalar soni (12,4 %), kichik biznes sub'ektlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi (23,2 %), xizmat ko'rsatish sohasida mehnat unumdorligi (34,9 %), xizmat ko'rsatish sohasida fondlar bilan qurollanish (37,0 %)ni oshishiga erishiladi.

Xulosa qilish mumkinki, (3) ekonometrik model matematik-statistik tahlil qilish usullari bilan tekshirilgan modelning ahamiyatli ekanligi, parametrlarining ishonchliligi hamda avtokorrelyatsiya mavjud emasligi aniqlandi. Mazkur ekonometrik model asosida xizmat ko'rsatish sohasida jami xizmatlar hajmining istiqbol davrlarini prognozlashtirishda foydalanish mumkin.

XULOSA

Dissertatsiya ishida amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida quyidagi ilmiy xulosa, takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Dissertatsiyada xizmat ko'rsatish sohasi rivojlanishining ilmiy tavsifi hamda davlatning ijtimoiy-iqtisodiy funksiyalarini realizatsiya qilishni boshqarish vositasi sifatida "xizmat" va "davlat-xususiy sherikligi" kategoriyalarining mohiyati va mazmuniga oid mualliflik ta'rifi ishlab chiqildi. Xizmat – bu foydali faoliyatning bir turi bo'lib, mehnatning boshqa turlaridan o'zida alohida bir muhim xususiyatini mujassam etganligi bilan ajralib turuvchi, uni bajaruvchi va iste'molchi o'rtasidagi bevosita o'zaro munosabatlarning natijasi sifatida iste'molchining talabini qondirishga yo'naltirilgan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatdir. Davlat-xususiy sherikligi – bu davlat va ijtimoiy mulk ob'ektlari hamda turli xil ijtimoiy ahamiyatga ega loyihalarni amalga oshirish maqsadida davlat sherigi va xususiy sherikning muayyan muddatga yuridik jihatdan rasmiylashtirilgan, ular o'rtasida risklarni taqsimlashga asoslangan davlat va biznes o'rtasidagi o'zaro manfaatli hamkorlikdir.

2. Xizmat ko'rsatish sohasida davlat-xususiy sheriklikning asosiy shakllari davlat shartnomalari asosida o'zaro hamkorlik, sohada ijara kelishuvi, lizing kelishuvi, xizmatlarni taqsimlash bo'yicha kelishuvlar, investitsion kelishuvlar, konsession munosabatlar, aksionerlik jamiyatlari shakllanishi, davlat korxonalarida xususiy kapitalning ishtiroki va innovatsion faoliyat yo'nalishlari bo'yicha tasnifi ishlab chiqildi.

3. Davlat DXSHda tomonlarning biri sifatida namoyon bo'luvchi va riskni o'z zimmasiga olgan holda sug'urtalashdan moddiy manfaatdor bo'lgan holda, ushbu tizimdan to'liq foydalanishi kerak. Shunga ko'ra, xizmat ko'rsatish sohasida DXSH loyihalarida risklar ehtimolligini past ($RE_{past} \leq 0-2,5$), o'rta ($RE_{o'rta} \leq 2,6-4,5$) va yuqori ($RE_{yuqori} \leq 4,6-1$) darajali guruhlariga tabaqalashtirish orqali davlat va xususiy sektor ishtirokchilari hamkorligini baholash o'rtadagi risklarni taqsimlash va ularning ko'lamini aniqlash mezonlari asosida takomillashtirildi.

4. Xizmat ko'rsatish sohasida davlat va biznes o'rtasidagi sheriklik munosabatlarini rivojlantirish bo'yicha iqtisodiyoti rivojlangan davlatlar tajribalaridan foydalanish hamda ularning tajribalaridan amalda foydalanish DXSH samaradorligini oshirishning muhim yo'nalishi bo'lib hisoblanadi. Shunga ko'ra, tadqiqot ishida Qoraqalpog'iston Respublikasida xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanish xususiyatlaridan kelib chiqib, DXSHni joriy etishning yetakchi davlatlar tajribalaridan foydalanish bo'yicha takliflar ishlab chiqildi.

5. Xizmat ko'rsatish sohasida davlat-xususiy sherikligi loyihasini baholash uslubi boshlang'ich ko'rsatkichlarning o'zgarishiga bog'liq holda olingan ko'rsatkichlar sezgirligining nisbiy tavsifini ifodalovchi elastiklik koeffitsiyentini aniqlash asosida takomillashtirildi.

6. Davlat-xususiy sherikligi munosabatlarida klaster tizimini joriy etishning ishlab chiqarishni integratsiyalash, byudjet samaradorligini ta'minlash, yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirish, korxonalar imkoniyatlarini birlashtirish

hamda boshqaruvning zamonaviy uslublari va vositalarini joriy etish orqali sinergetik samaraga erishishi asoslandi.

7. Xizmat ko'rsatish sohasida davlat-xususiy sherikligi loyihalarini realizatsiya qilish va samaradorligini oshirish bosqichlari algoritmini shakllantirish asosida davlat va xususiy biznes hamkorligi rivojlanishining investitsion faolligini oshirish modeli taklif qilindi.

8. Xizmatlar bozorida raqobatbardoshlikni oshirish, investitsion salohiyatni rivojlantirish, korxonalar iqtisodiy salohiyati va samaradorligi hamda xizmatlar ijtimoiy ahamiyatini aniqlovchi indikatorlar asosida xizmat ko'rsatish korxonasida investitsion jozibadorlikka ta'sir etuvchi omillar tasnifi ishlab chiqildi.

9. Davlat-xususiy sherikligini boshqarishning samarali tizimi davlat va xususiy biznes hamkorligi sohasida umumiy siyosatni aniqlash, moliyaviy-iqtisodiy beqarorlik sharoitida konsessiya shaklida davlat-xususiy sherikligi loyihalarini tayyorlash va realizatsiya qilish, boshqarishning tarkibiy elementi sifatida loyihadan keyingi tahlil va nazorat qilish bosqichlarini darajaviy guruhlash asosida takomillashtirildi.

10. Xizmat ko'rsatish sohasida davlat-xususiy sherikligi loyihalarida risklarni boshqarish tizimi risklarni boshqarish bosqichlarini shakllantirish, risklarni taqsimlash, davlat-xususiy sherikligi loyihalarini realizatsiya qilishda asosiy va maxsus risklarni tasniflash asosida takomillashtirildi.

11. Hudud investitsion jozibadorligini integral baholash metodikasi hudud iqtisodiy salohiyati, ishlab chiqarish-resurs salohiyati, tadbirkorlik rivojlanishi, iste'mol darajasi va turmush sifati, investitsion riskning xususiy ko'rsatkichlari reytingini aniqlash asosida takomillashtirildi.

12. Qoraqalpog'iston Respublikasida xizmatlar sohasining barqaror rivojlanish dinamikasi asosida jami ko'rsatilayotgan xizmatlar hajmini oshirishning 2027 yilga qadar prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

**РАЗОВЫЙ НАУЧНЫЙ СОВЕТ НА ОСНОВЕ НАУЧНОГО СОВЕТА
Phd.03/30.01.2020.I.20.06 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНОЙ СТЕПЕНИ
ПРИ КАРАКАЛПАКСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ
ИМЕНИ БЕРДАКА**

**КАРАКАЛПАКСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ БЕРДАКА**

УТЕМУРАТОВА ГУЛНАРАХАН ХОЖАНИЯЗОВНА

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДОЛОГИЧЕСКИХ ОСНОВ РАЗВИ-
ТИЯ ГОСУДАРСТВЕННО-ЧАСТНОГО ПАРТНЕРСТВА В СФЕРЕ
УСЛУГ**

08.00.05 – Экономика сферы обслуживания

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора (DSc) экономических наук**

Нукус – 2023

Тема диссертации доктора наук (DSc) зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией Республики Узбекистан за номером B2019.1.DSc/Iqt26.

Диссертация выполнена в Каракалпакском государственном университете имени Бердака. Автореферат диссертации на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) размещен на веб-сайте Научного совета (www.karsu.uz) и информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziynet.uz).

Научный консультант:

Арабов Нурали Уралович
доктор экономических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Бектемиров Абдумалик
доктор экономических наук, доцент

Мусагалиев Ажинияз Жумагулович
доктор экономических наук, доцент

Матякубов Умиджон Рахимович
доктор экономических наук, доцент

Ведущая организация:

Бухарский государственный университет


Защита диссертации состоится « 16 » февраля 2023 года в 14⁰⁰ на заседании научного совета 03/30.01.2020.1.20.06 по присуждению ученой степени при Каракалпакском государственном университете имени Бердака. (Адрес: 230112, г.Нукус, ул.Ч.Абдирова, 1. Тел: (99861) 223-60-78; факс: (99861) 223-60-19; e-mail: karsu_info@edu.uz.)

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Каракалпакского государственного университета имени Бердака (зарегистрировано № 123). Адрес: 230112, г.Нукус, ул.Ч.Абдирова, 1. Тел: (99861) 223-60-78; факс: (99861) 223-60-19; e-mail: karsu_info@edu.uz.

Автореферат диссертации разослан « 01 » февраля 2023 года.
(протокол реестра № 20 от « 01 » февраля 2023 года).


Ж.К.Сауханов
Председатель научного совета
по присуждению ученой степени,
д.э.н., профессор


Р.Б.Утемуратов
Ученый секретарь научного совета
по присуждению ученой степени,
PhD.


Т.Досчанов
Председатель научного семинара
при научном совете по
присуждению ученой степени,
д.э.н., профессор



ВВЕДЕНИЕ (аннотация докторской диссертации)

Актуальность и востребованность темы диссертации. В национальных экономиках мира в результате установления сотрудничества государства и частного сектора в процессе реализации социально значимых проектов в сфере обслуживания и сервиса заметно возросло применение модели государственно-частного партнерства. «В структуре ВВП экономически развитых государств доля сферы обслуживания и сервиса составляет 60-80%, средства на инвестирование научно-исследовательской и инновационной деятельности по сравнению с ВВП 3,0%, 2/3 всех средств приходятся на долю предпринимательства, где 65,0% составляют проекты государственно-частного партнерства»²⁴. Соответственно, совершенствование методологии развития государственно-частного партнерства в сфере услуг приобретает особую актуальность.

В мире в условиях глобализации и усиления национальной и международной конкуренции проводятся научно-исследовательские работы по развитию государственно-частного партнерства в сфере услуг. Развитие государственно-частного сотрудничества в сфере услуг, в связи с этим разработка форм и моделей государственно-частного партнерства, классификация методов оценки эффективности государственно-частного партнерства, обоснование кластерного подхода государственно-частного партнерства, моделирование инвестиционной деятельности развития государственно-частного партнерства, управления социальными рисками в проектах, повышения эффективности инвестиционной деятельности регионов, совершенствования механизмов регулирования государственно-частного партнерства в сфере услуг относятся к числу приоритетных направлений научных исследований.

Сегодня в качестве важного фактора развития сотрудничества государственного и частного секторов в сфере услуг Республики Каракалпакстан особое значение придается повышению эффективности проектов государственно-частного партнерства. «В текущем году реализовано 29 тысяч проектов на сумму 18 триллионов сумов, сфера услуг выросла на 20%. На реализацию проектов в сфере услуг в следующем году решено выделить 500 миллионов долларов».²⁵ Для решения этих задач необходимо углубление научных исследований таких направлений, как повышение инвестиционного потенциала сферы услуг, реализация государственно-частного партнерства в сфере, внедрение эффективных методов управления проектами государственно-частного партнерства, увеличение инвестиционной привлекательности регионов, а также

²⁴ <http://www.worldbank.org/eca/russian/data/>

²⁵ Видеоселекторное совещание 2021 года 14 декабря под председательством Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева по обсуждению результативности проводимой работы по развитию сферы услуг и приоритетных задач на перспективу. <https://xs.uz/uzkr/post/khizmatlar-sohasini-rivozhlantirish-bojicha-ustuvor-jonalishlar-belgilandi>

совершенствование механизмов регулирования государственно-частного партнерства.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит реализация задач, определенные в Указе Президента Республики Узбекистан от 30 сентября 2021 года № ПФ-6318 «О дополнительных мерах по поддержке сферы услуг», Постановлении Президента Республики Узбекистан от 20 октября 2018 года за №ПП-3980 «О первоочередных мерах по созданию правовой и институциональной базы развития государственно-частного партнерства», Постановлении Кабинета Министров Республики Узбекистан от 26 апреля 2020 года № 259 «О совершенствовании порядка реализации проектов государственно-частного партнерства» и других нормативных и юридических документах, относящиеся к этой области.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данное диссертационное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики I. «Духовно-нравственное развитие демократического и правового общества, формирование инновационной экономики».

Обзор зарубежных научных исследований по теме диссертации²⁶. Ведущие мировые исследовательские центры, крупнейшие рейтинговые агентства и высшие учебные заведения проводят теоретико-методологические исследования по вопросам осуществления инвестиционной деятельности, исследования форм и моделей развития государственно-частного партнерства, оценки эффективности проектов государственно-частного партнерства, увеличения инвестиционной привлекательности регионов такие как United Nations (Нью-Йорк), Organisation for Economic Cooperation and Development (OECD) (Париж), World bank (США), European Bank for Reconstruction and Development (EBRD) (Великобритания), Public-private Partnership Center (University of Navarra) (Испания), Public-private Partnership Center (Universite of Geneva) (Швейцария), Canadian science policy centre (Канада), North campus research complex (University of Michigan) (США), Public-Private Partnership Research Center (Toyo University) (Япония), Joint Centre for Public-Private Partnerships (University College London) (Великобритания), The Specialist Centre on PPPs in Smart and Sustainable Cities (PPP for Cities) (Испания), Российский экономический университет (Россия), Ташкентский экономический университет, Банковско-финансовая Академия Республики Узбекистан, Каракалпакский государственный университет имени Бердака.

